

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

**MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN**



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

**PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE**



**ANDIJON-2024. 10-IYUN**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”  
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

**Mas‘ul muharrir(lar):**

**f.f.n., prof. S.O.Solijonov**

**Tahrir hay‘ati:**

**f.f.d.prof. D.A.Rustamov**  
**f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev**  
**PhD. dots. M.A.Qurbonov**  
**f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov**  
**f.f.d.prof. V.A.Vositov**  
**PhD. dots. M.G‘.Xoshimov**  
**p.f.n. prof. Sh.S.Alimov**  
**PhD. G.M.Ibragimova**  
**PhD. Q.Umrzakov**  
**kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov**  
**kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova**

**Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:**

**A.A.Xomidov**

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

***To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.***

***Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil***

she’rdao’ziga xos jozibador ohang bo’ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo’llash natijasida erishiladi. She’riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho’zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so’zlarni noto’g’ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta’minlanadi[1,36].

Tovushlarni uslubiy qo’llash bilan bog’liq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o’ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo’lish, xafa bo’lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so’roq, ta’kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo’llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – fonografik vositalardan foydalanadilar. Fonografik vositalar fonostilistikada o’rganiladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili uslubshunosligida uning fonostilistika – fonetik uslubshunoslik masalalari yetarli darajada o’rganilgan emas. Og’zaki nutqning fonetik xususiyatlari yozma nutqda, asosan, grafik (imloviy) vositalar bilan aks ettiriladi. Shu bois og’zaki nutqdagi fonostilistik xususiyatlarni aks ettirish ham yozma nutqda grafik stilistika (grafostilistika)ga to’g’ri keladi. Shuning uchun uslubshunoslikda fonostilistika alohida bo’lim sifatida ajratilgan. Shuning uchun hozirda jahon tilshunosligida fonostilistikaga, uning obykti bo’lmish fonetik birliklar, fonetik hodisalar va fonetik vositalarning uslubiy xususiyatlarini o’rganishga bo’lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov A. Fonostilistik vositalarning o’rganilishiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti, 1985, 2-son.
2. Abduraxmonov G‘. Stilistik normalar haqida // o‘zbek tili va adabiyoti, 1969, 6-son...
3. Doniyorov X., Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. – Toshkent, 1988.
4. Mirzaev K. Ingliz tili stilistikasi. T., 2009
5. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. T.: “O‘qituvchi”, 1993.
6. Yaxshieva G. O‘zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. – Toshkent, 1996.
7. <http://www.lotschool.nl/Research/ltrc/>.
8. <http://www.language.babaev.net/sinus.html>

#### RAVISH SO’Z TURKUMIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

**Rabbimova Gulchehra Toyir qizi**  
**SamDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi**  
**1-bosqich magistranti.**

**Annotatsiya.** O‘zbek tilida so‘z turkumlarini, jumladan, ravish so‘z turkumi bo‘yicha, uning lug‘aviy - ma‘noviy guruhlariga ajratilishi mavzusi azaldan munozarali savollardan biri bo‘lib kelmoqda. Mazkur maqolada ravish so‘z

turkumining ma'no guruhlariga doir ilmiy-nazariy qarashlar muhokamaga tortildi hamda taqqoslandi.

**Kalit so'zlar:** ravish, lug'aviy-ma'noviy guruhlar, miqdor-daraja ravishlari.

Tilshunoslikning markaziy muammoli masalalaridan biri sifatida ravishni ko'rsatish mumkin. So'z turkumlari tizimini o'rgangan olim V. V. Vinogradov "mustaqil so'zning hech bir guruhiga sig'may qolgan so'z ravish turkumiga yig'ilgan" deya baho bergan edi. O'zbek tilida ravishlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, morfologik tabiati, ma'noviy guruhlar, shuningdek, so'z turkumlari tizimida tutgan o'rni atroflicha tanqidiy hamda tahliliy yo'sinda o'rganilgan. Jumladan, B. To'ychiboyev "Ravish guruhidagi so'zlarning tadrijiy taraqqiyoti" D. Sayidrahimova "So'z turkumlari tizimida ravishning o'rni" (monografiya O'sh, 2005) T. Asadov "So'z turkumlari tizimida ravish" hamda "Ravish stilistikasi", "O'zbek tilida ravish" S. Fuzailov kabilar ilmiy tadqiqotlarining obyekti sifatida ravish so'z turkumini o'rgandilar. Chunonchi, U. Tursunov, Sh. Shoabdurahmonov, J. Eltuzarov kabilar ham o'z ilmiy ishlarida ravishga to'xtalib o'tadilar. Yuqoridagi izlanishlarda bir mavzu ravish haqida gap ketsa ham, unga bo'lgan qarashlar turlicha. Birgina misol sifatida ravishning lug'aviy ma'noviy guruhlariga e'tibor qarataylik. Bu klassifikatsiya bir-biridan farqlanadi. Masalan,

1. U. Tursunovning tasnifi: *Holat, miqdor-daraja, o'rin va payt ravishlari.*
2. Sh. Shoabdurahmonov tasnifi: *Tarz, payt, o'rin, maqsad. (Daraja - miqdor kiritilmagan.)*
3. T. Asadov tasnifi: *Holat, payt, miqdor, o'rin, sabab, maqsad ravishlari.*
4. R. Sayfullayeva tasnifi: *Payt, o'rin, holat, daraja-miqdor, maqsad, sabab ravishlari.*

Yuqoridagilarga qarab shuni aytish mumkinki, ravish so'z turkumiga oid so'zlar ning aniq qoidalar, ko'rsatkichlar asosidagi klassifikatsiyasi shakllantirilmagan. Buning sababi sifatida ravishga doir so'zlarning o'zgarishlik yoki o'zgaruvchanlik xususiyatlarining yakdil holatda ochib berilmaganligini asos sifatida ko'rsatish mumkin, bizningcha. Shunga ko'ra ravishning ma'noviy guruhlar farqlanmoqda. Xususan, miqdor- daraja ravishlari aksariyat kishilar tomonidan ajratilib, alohida tur sifatida o'rganilsa, Sh. Shoabdurahmonov ravish guruhlar sirasiga buni kiritmaydi va quyidagicha izohlaydi: "Eslatma. Miqdor bildiruvchi so'zlar ko'p, oz, mo'l, kam kabi so'zlar ravish turkumiga kirmaydi. Chunki bular harakat-holat belgisini emas, mavhum miqdorni bildiruvchi so'zlardir" [4. 403.].

Bizningcha, aniq miqdorni bildiruvchi birgina so'z turkumi son bo'lib, qolgan barcha miqdor anglatuvchi so'z turkumiga oid so'zlar majmui mavhum, umumiy miqdorni anglatadi, shu jumladan, ravishlar ham. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, U. Tursunov miqdor – daraja ravishlari qatoriga ko'p, juda kabilarni ham kiritadi. Olim miqdor va daraja ravishlarini o'zini ham ikki tarmoqqa ajratadi ya'ni: "Miqdor-daraja ravishlari anglatgan ma'nosiga qarab harakatning miqdor jihatidan belgisini ko'rsatuvchi va harakat yoki belgining ortiqligini ko'rsatuvchi ravishlarga bo'linadi.

1. Harakat va holatning miqdor belgisini bildiruvchi ravishlar: ko'p, mo'l ancha, kam, bir oz, picha, xiyla, sal kabilar...

2. Harakat va belgining ortiqqligini ko'rsatuvchi ravishlar: juda, eng, g'oyat, nihoyat, o'ta kabilar..."[2.368].

Sh. Shoabdurahmonov esa bu kabi so'zlarni ravish hisoblamaydi va deydi: "Sifat yoki ravishlar bilan qo'llanib, belgining kuchli yoki kuchsiz darajasini bildiruvchi juda (juda chiroyli, juda tez), eng (eng baland, eng uzoq), g'oyat (g'oyat go'zal, g'oyat tez), sal (sal nordon, sal sekin) kabi so'zlar ravish hisoblanmaydi, chunki ravishlar mustaqil ma'noli leksik birliklardir. Keltirilgan tipdagi so'zlar esa (shu vazifada qo'llanganda) mustaqil leksik ma'noga ega emas, ular belgining turli darajasini ko'rsatish uchun xizmat qiladi"[4. 401].

Shu o'rinda T. Asadov izlanishlariga diqqat qaratsak, uning ayrim fikrlari Sh. Shoabdurahmonov qarashlari bilan hamohangdir. Tilshunos miqdor-daraja ravishlarini ham ikkiga ajratadi. Bular: kuchaytiruvchi va kuchsizlantiruvchi ravishlar. "Ilmiy adabiyotlarda eng, nihoyat(da), g'oyat(da), bag'oyat, g'irt, lang, o'ta kabilar ravish (kuchaytiruv ravishlari) deb ko'rsatiladi [3.97]. Aslida bular asliy sifatlarning ma'nosini muayyanlashtiruvchi shu so'z turkumiga xos xususiy kengaytiruvchilardir. Bu elementlar belgining belgisini oydinlashtirsa-da, sof ma'nodagi ravish bo'lolmasligini mustaqil alohida olingan holda ma'no ifodalay olish qobiliyatidan yiroqligi bilan ham isbotlash mumkin. G'oyat, o'ta, nihoyat g'irt kabilar aniq bir tushunchani emas, balki turli-tuman munosabatlarni ifodalovchi leksemalar hisoblanadi. Shuning uchun ularni orttirma darajadagi sifatlarni hosil qiluvchi yordamchi leksik birliklar (yuklamalar) sifatida o'rganish lozim" [1. 539].

Umuman olganda, yuqorida ham qayd etilgan kam, ko'p, ancha kabi so'zlarni nafaqat ravish turkumining qaysi turi toifasiga kirish yoki kirmasligi balki ularning qaysi so'z turkumiga oidligi ravish yoki sifat va boshqalar ekanligi haqidagi fikrlar ham munozarali bo'lib kelmoqda. Bunga ravishning o'zgarishlik xususiyati, sifatning turg'un belgini ham, harakat belgisini ham bildiradi olishini izoh sifatida ko'rsatish mumkin. Demak, nafaqat miqdor-daraja ravishlarini balki jamiki ravishga doir so'zlarni ajratishda uning morfologik qonuniyatlari izchil aniqlanib ishlab chiqilsa, ularning qaysi turkumga va qaysi ma'noviy guruhga kirishi haqidagi aniqroq fikrlar yuzaga chiqadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, ravish so'z turkumining lug'aviy turlari doirasiga tegishli so'zlarni ajratishda uning morfologik xususiyatlarini inobatga olish joiz. Agar uning sintaktik jihatlari bilan ya'ni gap tarkibida hol, aniqlovchi va hokazolar sifatida kelishi nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa, biroz chalkashliklar vujudga kelishi mumkin. Aynan shu tahlil ravishning boshqa so'z turkumlari, xususan, sifat, ot va yordamchi so'z turkumlaridan ajratib olishga ko'mak beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Asadov T. So'z turkumlari tizimida ravish. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2010.
2. Tursunov U, Muxtorov A, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: O'zbekiston, 1992.
3. Узбек тили грамматикаси. I том. Морфология. -Тошкент: Фан, 1975.

4. Shoabdurahmonov Sh va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.

## TARJIMADA IBORALARNING EKVIVALNETLIGI

Muxayyoxon Axmedova- ADCHTI, katta o'qituvchi  
Gavxaroy Maxmudova – ADCHTI, 301 C –guruh talabasi

**Annotation:** This article talks about the difficulties that phrases and idioms cause in translation and how they be translated through equivalents.

**Key words:** stable phrase, phrasal unit, additional meaning, equivalent, translation.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iboralarning trajima qilishda keltirib chiqaradigan qiyinchiliklari va ularning ekvivalentlar orqali tarjima qilish yo'llari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** turg'un birlik, frazeologik birlik, qo'shimcha ma'no, ekvivalent, tarjima

Ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni hosil qiladigan barqaror birikma. Iboraning ma'nosi ko'p holatlarda bir so'zga teng va ko'chma bo'ladi. Tilshunoslikda u frazeologik birlik deb ham yuritiladi va uni frazeologiya bo'limi o'rganadi: *Bir yoqadan bosh chiqarmoq—birlashmoq; do'ppisini osmonga otdi--xursand bo'lmoq.*

Ibora xuddi so'z kabi lug'aviy birlik deb sanaladi va tilning lug'at boyligini tashkil etadi. Ibora til hodisasi bo'lgani uchun u so'z birikmasi va gapdek nutq jarayonida yuzaga kelmaydi, balki so'z kabi tayyor holda bo'ladi.

Ibora shakl va ma'no butunligiga ega bo'lib, uning shakily tomonini so'z tashkil etadi: *rahmdil- ko'ngil bo'sh; xursand- boshi osmonga yetdi. «Ko'zingga qara, bolam, chuqur bor», dermish nuqul. Ko'zga qaramoq—oyog' ostiga qaramoq. (O'Hoshimov)*

Ibora tarkibidagi bir necha so'z butunligicha bitta gap bo'lagi bo'lib keladi: *Ko'z ochib yumguncha necha ming piyoda va suvoriy kishilar paydo bo'ldi. (A.Qahhor).* Bu yerda *ko'z ochib yumguncha* iborasi «juda tez» ma'nosini berib, gapda payt hol vazifasini bildiradi.

Xuddi so'zga o'xshab ibora bir qator xususiyatlarga ega: 1) Ibora frazeologik va qo'shimcha ma'nolardan iborat; 2) Iboraning atash ma'nosi so'zning atash ma'nosiga teng, lekin qo'shimcha ma'nosi umuman yo'q bo'lishi ham mumkin yoki so'zning ma'nosidan «kuchli» bo'ladi. Masalan, *xufiya* so'zi va *yeng ichida* iborasining atash ma'nosi birdir, ammo iborada uslubiy va hissiy ma'no mavjud.

Frazeologik ma'no ibora tarkibida 1) biror so'zning ko'chma ma'nosiga asoslanadi: (*Shirin so'z, achchiq gap, ishning ko'zi, gapning tuzi*)

2) tarkibidagi qismlarning umumiy ma'nosiga tayanib ko'chma ma'no anglatadi: (*og'zi qulog'ida, bel bog'lamoq, og'iz ochmoq, tili tutildi, temirni qizig'ida bos*)

3) tarkibidagi qismning ma'nosiga mutlaqo aloqasi bo'lmagan ma'noni anglatadi: (*boshi osmonga yetdi, tepa sochi tikka bo'ldi, yulduzni benarvon urdi, yuragiga qil sig'maydi*)

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

	<b>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</b>	
51.	<b>FONOSTILISTIK O‘ZGARISHLARNI BELGILOVCHI EKSTRALINGVISTIK OMILLAR</b> Mamasadikova Mukaddasoy Qaxramonbek qizi	176
52.	<b>RAVISH SO‘Z TURKUMIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR</b> Rabbimova Gulchehra Toyir qizi	179
53.	<b>TARJIMADA IBORALARNING EKVIVALNETLIGI</b> Muxayyoxon Axmedova	182
54.	<b>IDIOMS IN PHRASEOLOGY</b> Nazarova Ziyoda Kattayevna	183
55.	<b>ILOVA KONSTRUKSIYALARDA GAP BO‘LAKLARINING BAJARIB KELADIGAN VAZIFALARI</b> Hojiyeva Nafosatxon Ilhom qizi	185
56.	<b>ILM-FANDA TERMINLAR OLAMI</b> Ismanova Odinaxon Urunbayevna	187
57.	<b>THE IMPORTANCE OF INTRODUCING UZBEK NATIONAL CULTURE TO OTHER NATIONS IN TRANSLATION OF LITERARY WORKS</b> O‘.M.Nortoeva, Sobia Bhutto	189
58.	<b>IKKILAMCHI NOMINATSIYA ORQALI PAYDO BO‘LGAN TERMINLAR</b> Tursunova Nodirabegim Fayzullo qizi	191
59.	<b>M. FUKO INTERDISKURSIVLIK KATEGORIYASINING ASOSCHILARI SIFATIDA</b> Nodirabegim Haydarova Ahtamjon qizi	195
60.	<b>O‘ZBEK TILIDA MOTAM SEMANTIK MAYDONIGA KIRUVCHI SO‘ZLARINING SINONIMIK MUNOSABATI</b> Mushtariybonu Jaloliddinova Jamoliddin qizi	197
61.	<b>BOLA NUTQI RIVOJLANISHNING UMUMIY SHAKLLARI</b> Jo‘rayeva Dilnavoz	200
62.	<b>MURIEL SPARK BADIY NUTQINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b> M.Z.Djalaldinova	203
63.	<b>POLIKOMPONENTLI QO‘SHMA GAPLAR TARJIMASIDA TRANSFORMATSIYALAR</b> A.A.Latibjonov	206
64.	<b>THE NATURE OF PARTS OF SPEECH</b> Abdullayev Ikramjon Xashimjanovich Lindawati Mustikasari	208
65.	<b>THE ROLE OF CONNOTATION IN WORLD LINGUISTICS</b> Mirzaabdullayeva Mahliyo Khosiljon qizi	211
66.	<b>SOME REFLECTIONS ON THE PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING MENTAL ABILITIES OF THE MAN IN THE SYSTEM OF LANGUAGES</b> Toshtemirov Elyor Nuraliyevich Turgunova Erkinoy Ergashevna	214
67.	<b>LINGUACULTURAL EXPRESSION OF STYLISTIC DEVICES IN THE TRANSLATIONS OF THE NOVEL “DAYS GONE BY” BY A. QADIRI</b> Gaybullayeva Sevara Shukhrat qizi	217